

XORIJIY DAVLATLARDA MAKTABGACHA TALIM TIZIMI

*DTPI pedagogika fakulteti Maktabgacha talim yonalishi
2- bosqich talabalari*

**Bahodirova Shaxina Bobirjonovna
Jovunboyeva Mashxura Mamasoli qizi
Amonova Nigina Obid qizi**

Anatatsiya : Ushbu maqolada Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Italiya, AQSH, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarning maktabgacha talim sohasi haqida fikr yuritilgan

KIRISH

Hozirgi vaqtlarda respublikamizda jahon talim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda

Buyuk Biritaniya so'ngi yillarda ta'lim davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o'rin egallamoqda. Asosan bu davlat Angliya , Shotlandiya, Uels va Irlandiya davlatlariga bo'linishiga qaramay, ularda ta'lim tizimi tarixan o'xshash tendensiyalarga egadir.

20-yillarda mamlakatda ” o'rta ta'lim barcha uchun”degan shior ommaviylashdi va shu bois Buyuk Britaniya xalq talimi takomillashib bordi.

Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta'lim o'quv rejasida nafaqat umumiy ta'lim jarayoniga urg'u beradi balki boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'nikmalarga alohida ahamiyat beradi. Bunda 4 5 yoshdagi bolalar rivojlanishining 6 ta yo'nalishidagi aniq ko'nikma va bilimlari belgilanadi. Masalan shaxsiyatlik, komunikativ, xabardorlik, matematik, jismoniy va ijodiy so'ngi yillarda Britaniya hukumati maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki bog'chalarda mazmunan boyitish mamlakat kelajagini belgilaydi. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagoglar va otalarning roli katta bo'lib , ular hukumatning bu sohadagi siyosatini belgilashga o'z hisalarini qo'shmoqdalar.

Germaniya ta'lim tizimi besh oltin qoidaga asoslanib faoliyat yuritadi. Bular tafakur ustaxonasi, bepul va majburiy ta'lim,tanlash



imkoniyati, real maktab, gimnaziya "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman", aszodalar orzu qilgan universitit.

Germaniya qonunlarida maktabgacha ta'lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yasliga olib borish mumkin, nemislar bu huquqdan foydalanadilar.

Rossiyada maktabgacha ta'lim 7 yoshgacha mo'ljallangan. Rossiya davlatida bolalarni maktabgacha talimga qamrab olishdan maqsad umumiy rivojlantirish o'qitish va o'qitish maktabgacha talimning ta'lim dasturlari maktabgacha yosgdagi bolalarda har bir yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har tamonlama rivojlantirishga, shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarga individual yondashishga asoslangan boshlang'ich umumiy ta'limni o'quv dasturlarini yondashishga asoslangan va maktabgacha yoshdagi hos bo'lgan tadbirlar. Rossiyada maktabgacha talimning mavjudligi 100%ni tashkil qiladi

Maktabgacha ta'lim muassasalari - 6 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bog'chalari va 3 yoshdan 6yoshgacha bolgan bolalar bog'chalari. Italiyada bolalar bog'chasining maqsadi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek bolalarni boshlang'ich maktabga tayyorlash va rivojlantirish, shuningdek bolalarni maktabga kirishga tayyorlashdir. Bolalar bog'chalari yetarli emas va ularning deyarli barchasi xususiy mulkdir. Italiyada maktabgacha ta'lim ixtiyoriydir.

AQSH da bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalaydi. AQSH da bolalar yozda atrofdagi ko'klamzorlarida o'ynab dam oladilar. Bu bog'chalarda ham bolalar yoshlarga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar. Asosan bolalarga tarbiyachi mutaxassis qaraydi, ular ovqatni guruhlarda tayyorlab beradi, turli qo'shiqlar, she'rlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradilar ammo tarbiyachilarning har biri o'z uslubiga muvofiq, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan. Lekin bolalar uchun haqiqiy ta'lim tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi.

Bolalar 5 yoshdan keyin "Kinder garder" deb ataluvchi tayyorlov bog'chalariga jalb etiladilar. Bolalar asosan maxsus "Maktab avtobusida" uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Maktab avtobuslarida - yo'l transport vositalaridan muhofaza etilgan, sariq rangga bo'yalgan uning singnallariga barcha transport vositalari itoat etishga majburdilar.



Xitoyda maktabgacha ta'lim bolalar bog'chalari va maktabgacha ta'lim muassasalari hisoblanadi. Xitoyda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3 -6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim tizimning maqsadi bolani maktab o'qishiga tayyorlashdan iborat. Xitoyda 150 mingdan ziyod bolalar bog'chalari mavjud. Asosan davlat va xususiy muassalarga bo'lingan. Hozir kunda xususiy bog'chalar soni jami bolalar bog'chalarining 30% tashkil qiladi. Xitoyda bolalar bog'chalari ikkinchi jahon urushiga qadar juda kam edi. Bori ham xususiy muassalar edi. Asosan unga boy oilalarning bolalari enagalari bilan kelishalardi. Urushning keying yillarida XXRning maktabgacha ta'lim tarixi davlatlarining asosiy rivojlanishiga mos holda 4 bosqichda amalga oshiriladi.

Xitoyda bolalar bog'chasi juda katta bo'lib, o'rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Asosan guruhda 26 ta bola bo'lib ularning bir qismi bog'chada kunduzgi soat 08:00 dan 18:00 gacha bo'ladilar va kechqurin uyga ketadilar.

Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimining 80 foizini xususiy bolalar bog'chalari va bolaga qarash markazlari tashkil etadi. Davlatga tegishli va hususiy bog'chalar o'rtasidagi farq katta emas. Ta'lim berish jarayonining tizimi va yondashish ikkala turdagi muassasalarda ham 2006- yilda qabul qilgan "Talim to'g'risidagi asosiy qonun"ga mos ravishda olib boriladi. Guruhdagi bolalar soni ham turlicha bo'lib, 8 nafardan 40 50 nafargacha bo'lishi mumkin. Yaponiyada maktabgacha tarbiya muassasalariga ish soatlari turlicha. Davlat bog'chalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi. Bolalar bog'chalarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qoshish aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkaziladi muntazam sayrlarga chiqib turadilar. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Yoshlikdan go'zallikni sevishni va tabiatni his etishni o'rgatiladi. Yapon bolalar bu tuyg'ular bilan umrbod yashaydilar. Yaponiyada bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanji sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarini yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Hozirgi kunda , maktabgacha ta'lim tarbiya muassasalariga 60 foiz bolalar jalb etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda xorij mamlakatlarini maktabgacha ta'lim tizimini tahlil qilar ekanmiz ingliz bolalar bog'chasida maktabgacha



ta'lim tizimini asosiy maqsadi har bir bolaga mustaqillik, erkinlik, o'z fikrini ayta olishga imkoniyat yaratib berishda asosan o'yinlardan kop foydalaniladi 2020- yil 23- sentabrda "ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirda qabul qilinishi unga muvofiq ta'lim eng birinchi bosqichi hisoblanadigan Maktabgacha ta'lim va tarbiya turli alohida ko'rsatilgan bo'lib. Maskur qonunda va boshqa qonun osti hujatlarda hamo'z aksini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

- 1.A.A.Ikramov, G.N. Davranova, A.A.Ikramova ” Qiyosiy peadagogika” o'quv qo'lanma-Buxoro BTP, 2022.
- 2.M.J.Mutalipova. B.X. Xo'djayev. "Qiyosiy pedagogika". Darslik.- .T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015-yil.
- 3.N.Abdusamadova. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanidan ma'ruza matni. T.: Namangan- 2018-yil.
- 4.N.E.Djumaeva. qiyosiy pedagogika fanidan maruzalar matni. Qarshi.2015-yil
5. M.J Mutalipova. Xalq pedagogikasi (o'quv qollanma).-T 2011-yil

